



IJODKOR RUHIY EVOLYUTSIYASINING BADIYATGA KO'CHISHI (A.QAHHORNING "O'TMISHDAN ERTAKLAR" ASARI MISOLIDA)

Abdulahob Suyundikovich Zaripov

Samarqand davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6775458>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 25th June 2022

KEY WORDS

evolyutsiya, ruhiy evolyutsiya, ijodkor bolaligi, psixologik tasvir, muallif va protatip, avtobiografik xarakter, yozuvchi meni va uning asar yaratishdagi o'rne, fojiaiviy tasvir.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, avvalo, ijodkorning bolalik davridan to yetuklik davrigacha ruhiyati, ya'ni ruhiy evolyutsiyasi tahlil qilingan. Maqolada buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asari yuzasidan qarashlar va asar va uning Qahhor hayotidagi o'rni haqida umumiy xulosalar chiqarilgan.

Abdulla Qahhor yangi milliy adabiyotimizning ikkinchi avlodi sanalmish Oybek, G'. G'ulom, H. Olimjon, Mirtemirlar safida turib ijod etdi. Safdoshlari kabi A. Qahhorning bolaligi ham, qizg'in ijodiy faoliyati ham XX asrning eng fojiali paytida, mudhish sharoitida, mustabid yakkahokim mafkura, sovet adabiy siyosati ta'siri va tazyiqi ostida kechdi. Bu hol yozuvchining ijodiy taqdirida talay noxush asoratlar qoldirdi va bu albatta uning asarlarida badiiy jonlanib o'z inikosini berib bordi. Ayni paytda Alloh bergan benazir iste'dod, noyob shaxsiy fazilatlar, o'ziga xos o'tkir nigoh, qat'iyat, iroda-bardosh, haqgo'ylik, halollik va shijoat tufayli zamonasi talotumlaridan yuqori ko'tarila oldi. Adibning bolalik xotiralari va "ertak" deb atalgan bo'lsa-da haqiqat bo'lgan hayot lavhalaridan uning "O'tmishdan ertaklar"

qissasi orqali tanishishimiz mumkin. Asardagi har bir holatda, voqealardagi ziddiyatlar kitobxonni o'ylashga, mushohada qilishga, yashayotgan kunlariga shukrona qilishga undaydi. Bu biografik asar uning bolaligini bizga ochib beradi, yosh Abdulla bilan birga ko'p yig'laydi kitobxon. Bu asar bolalik xotiralarining in'ikosidir. Bu asardagi ruhiyat boshqa asarlariga ham o'z urug'larini qo'ygan, albatta.

Asarda ham yoritilganidek Abdullaning bolaligi oq-qora ranglardagi kinotasmani eslatadigan mash'um kadrlardir. Uning bolaligi Qo'qon shahri va atrofidagi qishloqlarda o'tgan. Otasi Abduqahhor Tojikistonning Asht qishlog'idan bo'lib, asr boshlarida akasi usta Abdurahmonga ergashib Qo'qon shahriga ko'chib kelgan, ota kasbi temirchilik bilan shug'ullangan.



Abduqahhor mustaqil oila tebratish ilinjida bo'lsa kerak, shaharni tark etib, bir necha yillar qishloqma-qishloq ko'chib yurgan. Onasi Rohatoy Abdulladan oldin va keyin tuqqan sakkiz bolasini qora yer bag'riga berib, yurak oldirib qo'ygani uchun bu o'g'lini yer-u ko'kka ishonmay, ko'z o'ngidan bir qadam ham jildirgani qo'ymay, avaylab o'stirdi. Biroq oilaning bu yolg'iz farzandi ko'z ochib, esini tanib, turmushning hadsiz xo'rlik, shafqatsizliklarini ko'radi. Ayniqsa darbadar, ko'chmanchi hayot, tahqir-u nadomatlar go'dak ko'ngliga og'ir botadi. «Bir qishloqda bolalarga endi qo'shilib, o'rtoq orttirganimda, boshqa qishloqqa ko'chib, yana «ko'chmanching bolasi» bo'lib qolar edim. Bu gaplar qattiq haqorat yo'sinida aytilar edi, -deb eslaydi adib tarjimayi holida. -Bir kuni kechqurun mahalla bolalari ilonni ko'rgan chumchuqday atrofimda chug urlashib turganda, kuzatib turgan bir mo'ysafid menga rahm qilgan bo'lib: «Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa o'zi bo'libdimi, xudo qilgan», -dedi. Mo'ysafidning bu gapi menga bolalarning ta'nasidan ham qattiqroq tegdi, uzoq yillar dilimda cho'kib yotdi. Bilmadim, ilgari qalay ekanman, lekin nazarimda meni shu gap indamas qilib qo'ydi. Uyda menga «indamas», «ichimdan top» deb dashnom beradigan bo'lishdi... Bunaqa ta'na-dashnomlar meni battar «soqov» qilar edi».

Rostdan ham, Qahhorona yozilgan hikoyalardagi so'zga xasislik ham shuning "asorat" laridir, balki. Bu murg'ak ozordiyda qalb endi «indamas» degan ta'nadan qutulish uchun odamlardan, hatto o'z ayasidan ham mumkin qadar qochadigan bo'lib qoladi. Faqat shulargina emas. Qo'li kaltalik, yo'qchilik tufayli oilada yuz beradigan dilsiyohliklar, odam bolasi

dosh berishi mumkin bo'lmagan nochor turmush sharoitlari, qo'ni-qo'shnilar, odamlar orasidagi dag'al, beshafqat munosabatlar, yurtida avj olgan jaholat, uning har qadamdagi ham kulgili, ham mudhish oqibatlari, biri biridan ayanchli, fojiviy sarguzashtlar – bari-bari Abdulla Qahhor menini tanishida o'zining izini qoldirdi. „O'tmishdan ertaklar» da yozuvchi o'sha bolalik yillari manzarasi mohiyatini „kunlar g'urbat bilan boshlanib, g'urbat bilan tugardi» degan birgina jumlada juda yorqin, ta'sirchan ochib bergan. Ayni shu g'urbatga to'la darbadar va mungli hayot taassurotlari murg'ak Abdulla ko'nglida ilk bor o'ziga xos mungli qo'shiqqa aylanadi, aniqrog'i ko'nglidagi hasratlar qo'shiq bo'lib otilib chiqadi. Yozuvchining e'tirof etishicha, uning ilk bor ko'nglida tug'ilgan qo'shig'i-»ijodi» ayni shu mungli kechinmalar haqidadir. Demak, mana shu shafqatsiz hayot Abdullani yozuvchi bo'lib yetishuvida muhim omil rolini o'tadi. Keyinchalik u qo'lga qalam olganda bot-bot bolalik xotiralariga murojaat etishi, o'tmish haqidagi asarlarning malomatlar, g'am-g'ussalar bilan yo'g'rilganligi sababi shunda.

Abdulla xarakterining shakllanishida otasining ta'siri katta bo'lgan. Usta Abduqahhor qo'li qisqa bo'lishiga, darbadar hayot kechirishiga qaramay o'ziga xos mag'rur, nazari to'q, insonlik sha'nini baland tutadigan savodli, tadbirkor odam edi; «dadam birovning qo'lidan bitta yong'oq ham oldirmay o'stirgan» deb yozadi adib mamnuniyat bilan. Abdullaga ilk savodni otasi bergan, kitobga havasni ham otasi uyg'otgan. Adibning eslashicha, otasi kitobga nihoyatda ishqiboz bo'lib, deyarli har kuni ishdan keyin uydagilarga qiziq kitoblar, har xil jangnomalar, «Dalli va Muxtor», «Bahori donish», «Bobo Ravshan»



kabi asarlarni o'qib bergan. Abdulla muayyan mudbat eskicha usuldagi maktabda o'qiydi, xat taniydi, so'ng Oqqo'rg'onda Muhammadjon qori degan ochiq fikrli odamning yangicha usuldagi (usuli jadidiya) maktabida o'qishni davom ettiradi, „Qur'oni Karim»ni «Taborak» surasigacha yod oladi. Jadid ma'rifatchilarining darsliklaridan ta'lim oladi, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Tavallo, So'fizoda, Sidqiy adabiyotlari bilan tanishadi. O'sha jadid muallimi Muhammadjon qori yozuvchi shaxsiy hayotida chuqur iz qoldirgan, adib bir umr u kishi bilan iliq munosabatda bo'ladi, „O'tmishdan ertaklar»ning eng nurli bobini shu odamga bag'ishlaydi. Asardagi har bir qimirlagan jon shu yo'sinda badiiyat olamiga olib kiritilgan.

“O'tmishdan ertaklar” qissasi yozuvchi ijodining o'ziga xos yakuni, so'nggi cho'qqisi bo'ldi. Garchi “O'tmishdan ertaklar”dan keyin ham bir qator hikoyalar, «Muhabbat» qissasi yaratilgan, ularda qahhorona bitilgan satrlar bo'lsa-da, badiiy yetuklik jihatidan „O'tmishdan ertaklar» bilan tenglasha olmaydi.

„O'tmishdan ertaklar» muallifning bolalikda ko'rgan-kechirganlari haqidagi avtobiografik asar, biroq o'zbek adabiyotidagi mavjud avtobiografik asarlardan, jumladan, zamondoshi Oybekning «Bolalik» qissasidan keskin farq qiladi. «Bolalik»da lirik talqin, hodisalarni shoirona idrok etish ustun. Bola obrazi Oybek qissasida birinchi planda ko'rinsa, uning ko'rgan-kechirganlari, sarguzashtlari, shu kechinmalari tufayli murg'ak qalbda tug'ilgan rang-barang tuyg'ular ifodasi asar asosini tashkil etsa, „O'tmishdan ertaklar»da bola Abdulla obrazi orqa o'rinda turadi, u asosan «kuzatuvchi», «guvoh», «xolis hikoyachi»

tarzida beriladi; yozuvchining asosiy diqqat-e'tibori bola guvohligida oilada, oila tevaragida yuz bergan voqealarni-turmushning obyektiv lavhalarini chizishga qaratilgan.

Abdulla Qahhor ijodidagi, jumladan, „O'tmishdan ertaklar»dagi «o'quvchida juda og'ir taassurot qoldiruvchi» zulmat-» tarixning malomatli sahifalari», «qora bo'yoqlar»ning quyugligi, nurli jihatlarning zaifligi nuqson emas, asarning o'ziga xos xususiyati va fazilatidir.

Bir joyda qo'nim topolmay, qishloqmaqishloq ko'chib, azondan kechgacha ter to'kib ishlab, tinimsiz temir taqillatib, kichkina xonadon dasturxonini to'kin qilolmay, armonda yurgan omadsiz ota, sakkizta bolasini qora yer bag'riga berib, o'jar qaynona dag'dag'alari, darbadar hayot mashaqqatlari tufayli ozib-to'zib, «arvak» holiga tushgan mushtipar ona - shafqatsiz darbadar turmush, tahqir-u xorliklardan «indamas» soqovga aylangan bola haqidagi lavhalar o'quvchining yurak-bag'rini ezib yuboradi. O'zgalarning hayoti-chi? Yozuvchi mehnatkashlar hayotiga oid bir-biridan ayanchli, bir-biridan dahshatli lavhalar keltiradi. Yo'qchilik, jaholat qurboni Babarning mudhish taqdiri, ochilmasdan gulg'unchaligida xazon etilgan «hur qiz» - Sarviniso halokati - har biri dahshat, fojia! Bir qarashda kulgili tuyulgan hodisalar ham aslida o'zicha bir fojia! Chunonchi, katta shahar Qo'qondan bor-yo'gi yigirma chaqirim naridagi qishloq ahli German bilan urush boshlanganligi xabarini ikki oydan keyin, o'shanda ham tasodifiy suratda eshitadi; kishilarning ko'ziga oddiy hodisalar-mashinaning chok tikishi, patefonning qo'shiq aytishi, bir palla tarvuzning po'chog'ida ko'rsatilgan oddiy «nayrang», ohanraboning temir kalitni o'ziga tortishi, tug'ruqxonada



odamning tug'ilishi, «shayton arava»-velosiped mingan kishining harakati barcha-barchasi g'ayritabiiy, mo'jiza bo'lib ko'rinaveradi. Jo'n, ba'zan tasodifiy xatti-harakatlar juda ko'ngilsiz va dahshatli oqibatlarga olib keladi. «O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini yeyishga tayyor» turgan «ajdah» To'raqul vofurush, o'jar, dog'uli Valixon so'fi, olg'ir, mug'ambir ellikboshi, oqposhshoning arzandasi yuzboshi bilan bog'liq hikoyalar dillarni larzaga soladi. Qissada goho ko'ngilga huzur baxsh etuvchi nurli lavhalar, kishilararo hazil-mutoyibalar ham uchraydi, biroq bu quvonchli daqiqalar uzoqqa bormaydi, tezda avvalgisidan battarroq, dahshatliroq hodisalar bilan almashadi. Oqdomlaning jinnixonasi yonida umrguzorlik qilish azobidan qutulib, Yaypanga ko'chgan oilaning yo'ldagi holatini eslaylik: yo'l bo'yidagi devorsiz, devori qulagan, nuragan bog'lar, qing'ir-qiyshiq uylarini quchoqlab yotgan chorbog'lar, qiyg'os gulga kirgan daraxtlar... Butun qishloq kattakon bog'ga o'xshaydi. Shu damlarda oila a'zolari qatori Abdullaning ham ko'ngli chog' , o'rik g'o'rasini yeganda hamma yoqni bahor hidi tutib ketadi, butun bahor shu chigitdakkina g'o'raning ichiga qamab qo'yilganday tuyuladi... Afsus, bu quvonch uzoqqa bormaydi. Mana shu go'zal makonda oila manfur kimsa Vofurush xonadoniga tushib qoladi, oilaning galdagi ko'rguliklari boshlanadi... Oilaning yana bir ko'chgan joyi – Oqqo'rg'on qishloq emas, anjirzor bog'lar, chorbog'larda nuqul anjir. Oila tushgan hovli sahnida ikki tup anjir, shoxlarida shig' il mevalar, kindigidan sap-sariq sharbat oqib yotibdi; ochlik bo'lishiga qaramasdan, unga hech kim tegmagan... Quvonchli hodisa, vaziyat; biroq shu zahoti dilni g'ash qiladigan holat; hovlining egasi bulturgi vaboda bola-chaqasi bilan qirilib

ketgan; oila mana shu xosiyatsiz maskanda yashashga majbur...

Butun asar mana shunaqa ko'ngilsiz voqealar tizimidan tashkil topgan.

Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, qonunsizlik, jaholat avj olgan yurtda ma'rifat, ijtimoiy adolat uchun olib borilgan kurash usuli ko'pincha ma'nisiz, behuda, hattoki vahshiyona tus oladi: «Qishloqqa ilm-ma'rifat urug'ini sochgani kelgan» Muhammadjon qorining yangicha usuldagi ta'lim maktabi johil kimsalar tomonidan xonavayron etiladi. Usta Abduqahhorning akasi qizi Sarvinisoni urib o'ldirib qo'yganda bu qotillik uchun hech kim hech narsa demaydi, aksincha bu ishni yaqin kishilar «yo'пти-yo'пти» qilishga urinadilar. Qasoskorlar oqposhshoning arzandasi-yuzboshini avval tillalarini yutishga majbur etadilar, zo'rlab og'ziga tiqadilar, so'ng jodida uch bo'lak qilib, keyin o'sha bo'lingan jasadga kerosin sepib o't qo'yadilar. Musulmonchilikda zo'rlash man etilgan. Bir yoz chillasida ro'zasini buzgan temirchi oilasi a'zolari ta'qib ostiga olinib, sazoyi etiladi. Temirchi Abduqahhorning johillar jabriga qarshi chiqishi – bid'atga berilgan ayollarga azoyimxonlik qilib dam solishi, ularga tegishishi, raqibi Valixon so'figa eshakning miyasini yedirib, jinniga aylanishini kutishi, nihoyat shogirdi bilan uni «chirog'poya» qilishi; o'g'li og'rganida Allohga, aziz-avliyolarga qilgan iltijolari ijobat bo'lmay, go'dak joni uzilganida alam, jahl ustida aziz-avliyolarni bo'ralab so'kishi, telba ahvolda tokchada turgan Qur'onni olib, qulochkashlab yerga urishi, bu ham yetmaganday, yerda yotgan Qur'onni tepib yuborishi, begunoh buzoqni chavaqlab tashlashi-o'sha johil, mudhish muhitga munosib isyon, behuda, ma'nisiz xatti-harakatlardir.



Qisqasi, o'zbek adabiyotida ma'nisiz hayotning bu xildagi mudhish manzaralari hech qachon bu qadar shafqatsizlik bilan bor ranglarida mohirlik bilan ifoda etilgan emas. Yozuvchining bu bolaligi metindek mustahkam va chinordek yuksak Qahhorni tarbiyalagan bo'lsa ne ajab. Hayot qozonida qaynagan Qahhor balki, shundan mohir bo'lgandir. Bir narsa aniqki, ijodkorning

ruhiy evolyutsiyasida bu xotiralar tayyor holdagi asarlarga aylandi. Bu bolalik rostdan ham keyingi asarlar uchun ham xamirturush bo'ldi. Yozuvchi haqiqat oldida hatto o'z yaqinlari, otasini ham ayamaydi. Bu jihatdan „O'tmishdan ertaklar» XX asr adabiyotining noyob badiiy durdonalari qatoridan o'rin olishga haqlidir.

References:

1. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. Fan, 1967. – 136 b.
2. O'ljaboev U. Abdulla Qahhor saboqlari. Guliston. 2013. 40-bet.
3. SHarafiddinov O. Abdulla Qahhor. – T., Yosh gvardiya. 1988. 112-bet.
4. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi.
5. Sadullo Quronov. "O'tmishdan ertaklar" qissasining yuragi. ziyo.com